

**ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍ JOQARÍ
BILIMLENDIRIW, ILIM HÁM INNOVACIYALAR
MINISTRILIGI
ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍ MÁDENIYAT HÁM
TURIZM MINISTRILIGI
ÓZBEKSTAN MÁMLEKETLIK KONSERVATORIYASÍ
NÓKIS FILIALÍ**

**MUZÍKA HÁM KÓRKEM ÓNER
XABARSHÍSÍ**

ilimiy-metodikaliq jurnal

MUSÍQA VA SAN'AT AXBOROTNOMASI

Ilmiy-uslubiy jurnal

ВЕСТНИК МУЗЫКИ И ИСКУССТВА

Научно-методический журнал

BULLETIN OF MUSIC AND ART

Scientificmethodical journal

№ 1

SHOLKEMLESTIRIWSHI:

O'zbekstan mamleketlik konservatoriyasi Nokis filiali

- Bas redaktor:** – Allanbaev Rudakiy, professor w.w.a
Bas redaktor orinbasari: – Kamalova Dilfuza, filologiya ilimlari bo'yinsha
filosofiya doktori (PhD)
Juwapli xatker: – Gulmira Palwanova

REDKOLLEGIYA AGZALARI:

- Omonilla Rizaev** – O'zbekstan mamleketlik kerkem oner ham madeniyati instituti, professor w.w.a.
Hikmat Rajabov – O'zbekstan mamleketlik konservatoriyasi Nokis filiali, professor w.w.a.
Sayyora Gafurova – O'zbekstan mamleketlik konservatoriyasi, professor
Oydin Abdullaeva – O'zbekstan mamleketlik konservatoriyasi, professor.
Qurbanbay Jarimbetov – Qaraqalpaq mamleketlik universiteti, professor.
Alima Berdimuratova – Qaraqalpaq mamleketlik universiteti, professor.
Ziyada Bekbergenova – OzR IA Qaraqalpaqstan bolimi, professor.
Oqilxon Ibragimov – O'zbekstan mamleketlik kerkem oner ham madeniyat instituti, professor.
Azizbek Turdiev – O'zbekstan Respublikasi Oliy Majlis Senatmn jaslar, madeniyat ham sport masaleleri komiteti boshlig'i orinbasari, filologiya ilimlari bo'yinsha filosofiya doktori (PhD).
Allanazar Abdiev – Filologiya ilimlerinin kandidati, Qaraqalpaqstan Respublikasi xaliq jaziwshisi
Artiqbay Erejepov – Nokis qalaliq 1-sanli balalar muzika ham kerkem oner mektebi, pedagogika ilimlari bo'yinsha filosofiya doktori (PhD).
Janabay Marziyev – Qaraqalpaq mamleketlik universiteti, filologiya ilimlari bo'yinsha filosofiya doktori (PhD), docent.
Iroda Mirtalipova – OzMK janindagi B.Zokirov atindagi MEKOI, kerkem onertaniw ilimlari bo'yinsha filosofiya doktori (PhD).

JAMIYETLIK KENES:

- | | |
|-----------------------|-------------------------|
| Baxtiyor Sayfullaev | Najimatdin Muxameddinov |
| Ozodbek Nazarbekov | Najimatdin Ansatbaev |
| Komoliddin Urinbaev | Gulistan Annaqlicheva |
| Dawitbay Qurbaniyazov | Rayxan Saparova |
| Qalbay Turdiev | Paraxat Mamutov |

MAZMUNI

Алланбаев Р. Миллий мадеиятымызды рауажландырыу жолында жэне бир кэдем 3

MUZIKATANIW

Мамутов П.А. Заманг й музыка т лим системасын жетилистириуде руухыйлыктын орны 5
Пахратдинов Ш. Работа над произведением крупной формой 10
Sayidov T. D. Xonandalik ovozining fiziologik va akustik xususiyatlari 14
Мирталипова И.М. Ҳинд мусика назариясидаги товущактор структураларига бир назар 16
Raimova D.M. O'рта Osiya musiqa cholg'ularining paydo bolish tarixi 20
Расулов М.М. Мусика, теле ва радио дастурларнинг мухим компоненти ва композицион омили сифатида (тембр, темп, ритм, импульсивлик мисолларида) 23
Matyakubova U.G'. V-XV asrlar markaziy Osiyada musiqa madaniyatining nazariy asoslari 28

KORKEM ONER

Ражабов Х.Ж. Арсланбай Нажимов ижодига бир назар... 33
Matimuratov S.E. Qaraqalpaq kompozitori Kenesbay Abdullaev doretivshiligi haqqinda 35
Qutekeeva R.A. Qaraqalpaq k rkem  nerinde Ilish Xojametovtin tutqan ornı 39
Allaniyazov B.Q. Muzika k rkem  nerinin bayteregi (*Kompozitor Najimatdin Muxammeddinovtin omiri h m doretivshiligi haqqinda*) 44
Чаршемов Ж.А. «Қоблан» балетининг композицион хусусияти 48
Абдуллаева Ш.С. Труд все побеждает 57
Abatbaeva R.A. Qaraqalpaq k rkem  nerinde kompozitor Gayip Demesinovtin tutqan ornı 61
Пал анова Г.А. «Аязий» драмасында кахарман характерин с улелендириудиц езине т н кэсийетлери 65
Пал анова Г.А. Каракалпакстанда театр режиссурасының пайда болыуындагы миллий д реклер 68
Muxammeddinov Q. Milliy opera h m balet janrdagi tariyxıy shıgarmalar 71
Parmonov D.R. «Doira va urma zarbli cholg'ulari» musiqa san'atining yorqın namoyondasi 75
Каримова И.И. Традиции исполнения музыки Каракалпакского композитора Гаип Демесинова 78

ATQARIWSHILIQ ONERI

Erejevov A.A. Baqsıshılıq k rkem  nerinde doretilgen qosıq h m namalarını jaslar tarbiyasındađı ahmiyeti 83
Tnıbaev P.K. Dirijyorlıq k rkem  nerinin turleri h m evolyuciyası 87
Шарипова А.Р., Сидикова А.М. К вопросу о фортепианном исполнительском искусстве в Узбекистане 92
Ayubov K.Z. Foniologiya va odam ovozi tasnifi 95
Ziyovutdinova Z.U. XIX asrning ikkinchi yarimida o'zbek xalq cholg'ulari ijrochiligi sohasidagi jiddiy o'zgarishlar 98
Dadaboyev X.M. Xalq cholg'ulari ansambllarini tashkil etish 100
Aliev N.G. Demli saz  sbaplar tariyxı, klassikalıq muzika h m onı b gingi kundegi tutqan ornı 102

Saidxonov A.S. Cholg‘u konsert janri tarixi va taraqqiyoti	105
Jumabaev A.E. Qaraqalpaq k6rkem 6nerinde xaliq namali qosiqlarinnm tutqan orm	110

MUZIKA PEDAGOGIKASI

Xojanazarov T. Vokal pedagogikasidagi metodlardi zamanagoy pedagogikaga aylandiruv usillari	115
Ходжаметова Г.И. Задача обучения, воспитания и развития детей в музыкальной школе	117
Botirova X.T. Musiqa ta‘limi pedagogikasida o‘quvchi yoshlarni ma‘naviy-axloqiy ta‘lim-tarbiyasini shakllantirish	121
Saidumarov I. Ta‘lim-tarbiya va shaxsning ma‘naviy kamoloti xususida sharq allomalarining qarashlari	124
Абдисултанов Ж.Дж. Болалар мусика ва санъат мактабларида «Мусика адабиёти» фанини ўқитишда инновацион ёнлашув	128
Матёқубов Э.Г. Мусикада модулли таълим асослари	131
Najmetdinova N.I. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida bolalarning mustaqil musiqiy faoliyatining ahamiyati va mazmuni	137
Iseev R.A. Fortepiano paninini jahon muzika oqiw procesidagi ahamiyeti ham orm	141
Dauletbaev T.K. Milliy saz asbaplarm mektep oqiwshilarna uyretiwдин ahamiyeti	145

JAMIYETLIK-GUMANITAR PANLER

Бекбергенова З.У. Каракалпак халық дэстаны «Қырық кыз» хэм хэзирги каракалпак драматургиясы	150
Утепова Т.Б. Маданиятлараро мулохот тахлиллари Европа олимлари назарида	153
Жумашева А.Х. Интерактивные приёмы и формы проведения практических занятий	159
Саденова Г.П. Қаракалпак паремиологиясында жақсылық концепти	163
Mambetnazarov M.K. Хожа Ахмет Yassawiy hikmetlerinin jaslar tarbiyasidagi ahamiyeti	166
Марзияев Ж.К. Мақаланыц публицистикалық сыпатламасы	169
Камалова Д.Э. Шығарма композициясында турмыс шынлығын сәулелендириў шеберлиги	171
Мамбетназарова Р.К. Идеино-тематические особенности жанр путешествия в Каракалпакской литературе (на примере «Путешествия в пять стран по океану» Тажсена Изимбетова)	175

JAS IZERTLEWSHILER

Raxratdinov J.A. Kop qirli talant iyesi	180
Jumamuratova A.A. Qaraqalpaqstanda Opera janrinnm tutqan orm	181
Muratbaeva A.A. Jaslardin muzikalıq intellektin asirıwda muzika sinshısı Gulmaryam Kamalovannm orm	185
Orazalieva G.S. Gullengen dawirde — Jana namalar (Jamil Charshemov doretpeleleri haqqında)	186
Segizbaeva G.Q. Qaraqalpaqstanda daslepki muzikalıq drama janrinnm payda bolıwı	188

4. *Асафьев Б.В.* Избранные статьи о музыкальном просвещении и образовании. 2-е изд. М., 1973.
5. *Баренбойм Л.А.* Музыкальная педагогика и исполнительство. Л., 1974.
6. Вопросы музыкальной педагогики. М., 1979. Вып.1.
7. *Джами А.* Трактат о музыке. Т., 1960.
8. *Зарипов Р.Х.* Кибернетика и музыка. М., 1971.
9. *Золтан Кодай.* Избранные статьи. М., 1982.
10. *Yo'ldosheva S.* O'zbekiston musiqa tarbiyasi va ta'limining rivojlanishi. T., 1985.:
11. *Коршунова Л.С.* Воображение и его роль в сознании. М., 1979.
12. *Личко А.Е.* Психопатии и акцентуации характера у подростков // Психология индивидуальных различий: Тексты. М., 1982.
13. *Махмудов М.И.* Организация проблемного обучения в школе. М., 1977.
14. *Платонов К.К.* О системе психологии. М., 1972.
15. *То'хтахо'jaeva M.X, tahriri ostida.* Pedagogika nazariyasi va tarixi //– T.: «Moliya-iqtisod», 2008. – 208 b.
16. *Inoyatov U.I., Muslimov N.A., va boshq.* Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob. 2012 y. Toshkent, «Ilm-Ziyo» nashriyoti. 12 b.t.
17. *Panjiyev Q.B., Karimova D. A., Ualiyeva G.I.,* - «Musiqqa madaniyati» fani o'qituvchilari uchun O'UM -T.-2017.
18. *Сергеев И.С.* Основы педагогической деятельности: Учебное пособие. – СПб.: Питер. Серия «Учебное пособие», 2004–316 с.
19. *Botirova, Xilola Tursunbaevna.* «THE PLACE OF MUSIC IN UPBRINGING OF YOUNG PEOPLE.» Science and Education 1.1 (2020): 512-517.
20. *Tursunbaevna, Botirova Khilola.* «III RENAISSANCE OF UZBEK ART AND CULTURE AND ITS GLORIOUS PATH.» Web of Scientist: International Scientific Research Journal 3.5 (2022): 1973-1977.
21. *Tursunbaevna, Botirova Khilola.* «PERFORMANCE CULTURE IN INSTRUMENTAL PERFORMANCE.» Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development 3 (2022): 163-167.
22. *Tursunbaevna, Botirova Xilola.* «TEACHER AND STUDENT WORKING IN COLLABORATION
23. ON MUSIC.» CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN 2.4 (2021): 26-38.

Elektron resusrlar:

1. <https://www.int-jecse.net/abstract.php?id=2559>
 2. <https://paper.researchbib.com/view/paper/249680>
 3. <https://cyberleninka.ru/article/n/the-place-of-music-in-upbringing-of-young-people/viewer>
 4. <https://conferencea.org/index.php/conferences/article/view/844>
 5. <https://conferencea.org/index.php/conferences/article/view/830>
-

TA'LIM-TARBIYA VA SHAXSNING MA'NAVIY KAMOLITI XUSUSIDA SHARQ ALLOMALARINING QARASHLARI

Saidumarov I.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

Annotatsiya: Maqolada allomalarimizdan Mahmud Qashg'oriy, Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Ali ibn Abu Bakr, Najmiddin Kubro Ahmad ibn Umar ibn Muhammad Xivaqiylarning ta'lim-tarbiya va shaxsning ma'naviy kamoloti xususidagi qarashlari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: «Devonu lug'otut turk», «Al-muallim as-soniy», «Musiqqa haqida katta kitob», «Shayx ar-raisi» (Donishmandlar sardori), «Hidoya», «Kitob ash-shifo»dagi «Musiqqa ilmiga oid to'plam», «Kitob an-najot»dagi «Musiqqa bilimlarining qisqacha bayoni» bo'limi; «Donishnoma».

Аннотация: В статье изложены взгляды Махмуда Кашгари, Абу Насра Фараби, Абу Али ибн Сины, Али ибн Абу Бакра, Наджмуддина Кубра Ахмада ибн Умара ибн Мухаммада Хиваки на воспитание и духовное совершенствование человека.

Ключевые слова: «Девону Луготут Тюрк», «Аль-муаллим ас-Сани», «Большая книга о музыке», «Шейх ар-Раис» (Капитан Мудрых), «Хидая», «Сборник по музыкальной науке» в «Китаб аш-Шифа», раздел «Краткое описание музыкальных знаний» в «Китаб ан-Наджат», «Донишнома».

Annotation: The article presents the views of Mahmud Kashgari, Abu Nasr Farabi, Abu Ali ibn Sina, Ali ibn Abu Bakr, Najmuddin Kubr Ahmad ibn Umar ibn Muhammad Khivaki on the upbringing and spiritual improvement of a person.

Keywords: «Devonu Lugotut Türk», «Al-muallim as-Sani», «Big Book of Music», «Sheikh al-Rais» (Captain of the Wise), «Khidaya», «Compilation of Musical Science» in «Kitab al-Shifa», section «Summary of Musical Knowledge» in «Kitab al-Najat», «Donishnoma».

«Qadimiy va betakror diyorumizdan etishib chiqqan buyuk alloma, adib va mutafakkirlarimizning yuksak gumanistik g'oyalarga asoslangan boy ma'naviy merosi umumbashariy sivilizatsiya va madaniyat, dunyoviy va diniy ilm-fan taraqqiyotiga ulkan hissa bo'lib qo'shilgani dunyo jamoatchiligi tomonidan haqli ravishda e'tirof etiladi» [1].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning buyuk ajdodlarimiz ilmiy merosiga bergan mazkur bahosi biz taqdim etayotgan ilmiy risolaning metodologik asosini belgilab beradi.

Jahon madaniyati va san'ati taraqqiyoti, dunyo ilm-fani, ta'lim-tarbiya va shaxsning ma'naviy kamoloti rivojiga Sharq allomalarining qo'shgan ulushi hamda hizmatlari tahsinga loyiq deb, aytisak maqsadga muvofiq bo'ladi. Bizga ajratilgan qisqa fursatdan foydalangan holda bir nechta allomalarimiz haqida fikr yuritimiz.

Markaziy Osiyo turkiy xalqlari kundalik turmush tarzi ijtimoiy hayotining tashkiliy shakllari so'z, udum, urf-odat ta'lim-tarbiya, madaniyat, musiqa va inson kamoloti haqidagi bilimlar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan tarzda rivojlangan. VI-VII asrlarda yaratilgan xalq qo'shiqlari buning dalilidir. Mahmud Qashg'oriyning XI asrda yaratilgan «Devonu lug'otut turk» asaridagi to'rtliklarning ko'pchiligi qadimgi turk xalqi davriga oid san'at durdonalari, xalq qo'shiqlari bo'lib musiqa jo'rligida ijro etilgan.

Sharq madaniyati va taraqqiyoti musiqa san'ati rivoji tarixida Abu Nasr Farobiyning qilgan ishlar katta ahamiyatga egadir. Farobiy turli sohalarda katta bilimga ega bo'lgani uchun uni sharqda «Al-muallim as-soniy» deya ulug'lashgani barchamizga ma'lum. Farobiyning ajoyib musiqachi ekanligi borasida ko'pgina yozma manbalarda ma'lumotlarni uchratamiz. Farobiyning ilmiy va ijodiy izlanishlari borasida real ma'lumotlar qatorida rivoyatlar ham uchraydi. Rivoyat qilishlaricha Farobiy 70 dan ortiq tilni bilgan. U jumladan, «Har kimki ilm-hikmatni o'rganaman desa, uni yoshligidan boshlasin, sog'-salomatligi yaxshi bo'lsin, yaxshi ahloq va odobi bo'lsin, so'zining uddasidan chiqsin. yomon ishlardan saqlangan bo'lsin, barcha qonun-qoidalarni bilsin, bilimdon va notiq bo'lsin, ilmi va dono kishilarni hurmat qilsin, barcha real moddiy narsalar to'g'risida bilimga ega bo'lsin» [2] deb aytgan fikrlaridan o'rta asr allomalarining ta'lim-tarbiya va shaxs ma'naviy kamoloti borasidagi fikrlarini misol sifatida olib ko'rsak bo'ladi. Bu bilan u ta'lim-tarbiyada yoshlarni mukammal inson qilib tarbiyalashda aqliy-axloqiy tarbiyaga alohida etibor berib, uning etiqodicha bilim-ma'rifat albatta yahshi ahloq bilan bezanmog'i lozim, deb ta'kidlab o'tgan edi.

Farobiyning fanga qo'shgan hissasi katta. Uning tomonidan 200 ga yaqin turli sohalarga – falsafa, mantiq, huquqshunoslik, siyosatshunoslik, fiziologiya, psixologiya, pedagogika tibbiyot, matematika, musiqa, etika, estetikaga taalluqli asarlar yaratilgan. Farobiy o'zining «Musiqa haqida katta kitob» asarida o'sha davrdagi musiqa ijodkorligi, musiqiy janrlar va musiqachilar haqida qimmatli ma'lumotlarni keltirish qatorida o'zining musiqa ilmiga tegishli izlanishlarini ham kiritadi.

Jahon ilm-fani va tibbiyotiga ulkan hissa qo'shgan Abu Ali ibn Sino ham o'z davrining barcha bilim solhalarida ish olib borgan. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda uning 450 dan ortiq asarlar yaratilgan.

Ulardan hozirgacha tomonidan 242 tasi etib kelgan. Zamondoshlari Ibn Sinoni cheksiz bilim-tafakkuri va iqtidoriga tan berib ulug' tabibni «Shayx ar-ra'is» (Donishmandlar sardori) deb ataganlar. Ibn Sinoning musiqa san'ati, musiqashunoslik, musiqa pedagogikasiga doir beshta asari mavjud: «Kitob ash-shifo»dagi «Musiqa ilmiga oid to'plam», «Kitob an-najot»dagi «Musiqa bilimlarining qisqacha bayoni» bo'limi, «Donishnoma»dagi «Matematika» bo'limining qismi va bizgacha etib kelmagan «Musiqa san'atiga kirish» risolasi, «Kitob ash-shifo»da faqat muallifning eslatishi bo'yicha m'lum bo'lgan «Ariqlovchilar haqidagi kitob» laridir.

Ma'lumotlarga qaraganda Ibn Sino musiqa orqali bemorlarni tuzata olgan. Ko'pchilik bemorlarga musiqa bilimiga ega bo'lishi, biron cholg'uni chalishi yoki yaxshi qo'shiq kuylashni o'rganishi orqali tuzalib ketishi mumkinligini aytgan degan ma'lumotlar bor.

Ibn Sino bola tarbiyasi va tarbiya usullari haqida qimmatli fikrlarini

bildirgan. U bolaning axloqiy tarbiyasi haqida bildirgan fikrlarida uy-ro'zg'or tutish masalalari xususida ham so'z yuritadi. Bolani tarbiyalash oila ota-onaning asosiy maqsadi va vazifasidir. O'z kamchiliklarini tuzatishga qodir bo'lgan ota-ona tarbiyachi bo'lishi mumkin.

Axloqiy tarbiyada eng muxim vositalar bolaning nafsoniyatiga, g'ururiga tegmagan holda, yakkama – yakka suxbatga bo'lish unga nasixat qilishdir.

Ibn Sino bolada axloqiy xususiyatlarni mehnat, jismoniy aqliy tarbiya bilan o'zviy birlikda shakllantirishni, uni inson qilib kamol toptirishda asosiy omil deb bilgan.

XII asr boshlarida go'zal Farg'onaning Marg'ilon shahriga tegishli Rishton qishlog'ida 1123 yili, o'z davrining buyuk faqihlaridan bo'lmish Abu Bakr ibn Abdujalil ibn al-Xalil oilasida sog'lom va iste'dodli bir go'dak tug'ilib, hayot maydoniga qadam qo'ydi. Uni Ali ibn Abu Bakr deb atadilar. Ali ibn Abu Bakr yoshligidanoq oila a'zolari mexru muhabbatini qozonib o'ziga xos xislatlari bilan boshqalardan ajralib turardi. Tug'ma iste'dod, tabiiy layoqat, sezgir ruh, tushunish va anglash uchun harakat uning yurish turishidan ko'zga tashlanardi.

U barcha fanlarni o'rganish, barcha sohalarda asar yozish vositasi bo'lgan arab tili va adabiyotini nihoyat oliy me'yorda o'rgandi. Uning bu sohadagi ajoyib layoqati va qobiliyatini uning asarlari, ayniqsa, «Hidoya»da ko'rish mumkin.

Ilm o'rganish yo'lida yosh olimning tinimsiz sa'y-xarakati va barkamol shaxsiyati qirralarining ochilishi barchaning diqqat markazida bo'lgani uchun, Shayxulislom, Imomi xumom va Burhonuddin laqablari uning to'liq ismi sharifi Ali ibn Abu Bakr ibn Abdujalil ibn al-Xalil al Farg'oniy al-Marg'inoniyga qo'shib aytiladigan bo'ldi.

Imomi Humom deganda oliy irodali va yuksak ximmatli din rahbari nazarda tutiladi, Burhonuddin esa diniy ishlar va shariat ilmlari bo'yicha har bir so'zi xujjat va burhon, ya'ni qat'iy dalil darajasida turgan olimni ifodalaydi.

Ali ibn Abu Bakr tinimsiz sa'y-harakat va uzoq muddat sayru safar jarayonida, o'sha asrning ilm dargoxlariga borib eshik qoqdi. 33 yoshida 544 hijriy (1150 milodiy) yili haj safariga jo'nab, avval Ka'batullo, so'ngra hazrat Muhammad (S.A.V.) qabrlarini ziyorat qilish sharafiga muyassar bo'ldi.

Olim barakali safar jarayonida Turkistondan tortib Xuroson, Eron, Iroq va Arabiston o'lkalarida taniqli olimlar bilan suhbat o'tkazdi. Islom endiklopediyasida yozilishicha u, o'z xayoti davrida o'qigan va ko'rgan narsalarini o'sha davrda rasm bo'lganidek aloxida daftarlarda yozib qaytgan ekan, lekin afsuski, ushbu qo'lyozmalar bizgacha etib kelmagan.

XII–XIII asrlar tasavvuf olamining yorqin yudduzlaridan biri Najmiddin Kubro Ahmad ibn Umar ibn Muhammad Xivaqiy 540 hijriy (1145 m.) yili Xorazmning Xiva shahrida tug'ilib voyaga etgan edi [3.24.60].

Najmiddin Kubro ilm izlab Tabriz shahriga boradi va u erda imom Abu Mansur Hafda degan kalom olimidan dars oladi. Shuningdek, Tabrizda shayx Bobo Faraj Tabriziy, Ammor Yasir, Ismoil Kasriy kabi ulkan mutasavvif donishmandlardan tasavvufga oid ko'pgina zoxiriy va botiniy ilmlarni egallaydi. Najmiddin Kubro Ismoil Kasriyning qo'lidan xirqa kiyib, o'zining birinchi shayxi Ro'zbxon al-Misriy yoniga qaytib boradi.

Shayx Ro'zboxon Najmiddin tasavvuf asoslarini butunlay anglab olganini ko'rib, uni ona yurti Xorazmga borib, tasavvuf ta'limotini tarqatish yo'lida faoliyat ko'rsatishga da'vat qiladi. Najmiddin uning buyrug'iga binoan, o'z oilasi bilan, ona yurtiga qaytib keldi. U erda joylashgandan keyin bir xonaqo ta'sis etib, manbalarda «at-Tarika-tuz-zahabiya», ya'ni «Oltin tariqat» nomi bilan ham zikr etilgan. Kubraviya tariqatiga asos soldi va ushbu tariqatta oid irfoniy ta'limotlarni talqin eta boshladi. Ko'p o'tmay, yangi tariqat asoschisining tevaragida ko'plab shogird va muridlar yig'ilib, bu yo'lga qadam qo'ydilar. Ulardan XII–XIII asrlarning bir qator mashhur sufiylari kamolga etishib, murshid va vali sifatida tanildilar.

Ali Akbar Dehxudoning mashhur «Lug'atnoma»sida keltirilishicha, bexad ziyrakliklari va tuganmas zakovatlari tufayli har qanday muammoli masalani so'ralganda hal qilib berib u kishi bilan bahs-munozara qilgan kishi ustidan g'olib chiqar edilar, shu bois u kishini «at-Tommatul-Kubro» (buyuk ofat) deb ataganlar. Shamsiddin Somiyning yozishicha, bora-bora «at-Tomma» so'zi so'zlashuv jarayonida tark etilib, «al-Kubro» (buyuk) so'zi uning laqabi, ya'ni Najmuddin Kubroning ajralmas qismi bo'lib kelmoqda.

Najmiddin Kubroning Xorazmdagi so'nggi hayoti o'ta og'ir, shiddatli va murakkab sharoitda kechadi. Bu davrda turli ichki va tashqi omillar tufayli mo'g'ullarning Turkistonga qilayotgan hamlalari kuchayib, Chingizxon lashkarboshlari Movarounnahrda yirik shaharlarni birin-ketin beayov bosib olishga muvaffaq bo'lar edilar. 1221 yilning iyul oyida Chingizxon lashkarboshilaridan biri Xulaguxon o'zining yosh o'g'li tumonat lashkari bilan Urganch qal'asini o'rab oladi. Urganch shahri qamal ichida qolib, aholi nihoyatda og'ir sharoitda azob chekayotgan bir asnoda munkillab qolgan, etmishdan oshgan Najmiddin Kubro xalq orasidan lashkar to'plab, qo'lida qurol bilan qal'ani bir necha kun davomida dushman hamlalaridan saqlab turadi. U mo'g'ul bosqinchilariga qarshi o'z muridlari bilan shiddatli jang-ga kirib, shahid bo'ladi. Ushbu voqea 10-jumodul-avval 618 hijriy – 1221 milodiy yilning iyul oyida sodir bo'lgan edi.

So'zimizni muhtasar qilgan holda jahon ilm-fani, madaniyati va san'ati taraqqiyoti, ta'lim-tarbiya va shaxsning ma'naviy kamoloti hususidagi qarashlari bilan betakror hissa qo'shib dunyo ilmining poydevorini yaratgan yuzlab Sharq mutafakkir va allomalarining bebaho merosini har qancha o'rgansak, ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borsak kam. Bu ilmiy izlanishlar yana uzoq yillar davom etishiga ishonamiz.

Foydalangan adabiyotlar

1. Буюк алломалар, адиб ва мутафаккирларимиз ижодий меросини кенг ўрганиш ва тарғиб қилиш мақсадида ёшлар ўртасида китобхоилик тайловлариини ташки этиш тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори. 12.05.2018 й. Н ПК-3721
2. Eweblight. com. Sharq mutaffakirlarining farzand tarbiyasi haqidagi fikrlari.
3. *Тухтаева Д.* Шарқ мутафаккирлари ижодида мусика саиъатининг тутган ўри и ва тарбиявий ахамияти. БМИ. Тошкент. 2017 йил. 24 бет.
4. *Ганиева И.А.* «Шарқ малакатлари мусика тарихи». Т.: 2010
5. *Векслер С. М., Кароматов Ф.М.* «Ўзбек мусикаси тарихи». Т.: 1981